

## “TARBIYASI QIYIN” O’SMIRLAR BILAN ISHLASHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Hamdamova Nigora Olimovna**

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

*Ilmiy rahbar*

**R.Avezov**

**Annotation:** Maqolada “Tarbiyasi qiyin” o’smirlar bilan ishlashning o’ziga xos xususiyatlari, o’smirlik davrining psixologik jihatdan rivojlanish xususiyatlari, o’smir shaxsining shakllanib, kamolotga erishish yo’llari va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri masalalari, olimlar tomonidan o’smirlardagi qiyinchiliklar va bu qiyinchiliklarni sabablari haqidagi fikrlari berilgan, o’smirlar bilan ishslash bo‘yicha tavsiyalar mavjud.

**Tayanch so‘zlar:** o’smir, psixik o’sish, kamolot, jinsiy balog‘at, xarakter, xususiyat, o’z-o’zini anglash, ota-on, pedagog, psixolog, e’tibor, qiziqish.

**Аннотация:** В статье описаны особенности работы с «труднообучаемыми» подростками, особенности психологического развития подросткового возраста, пути формирования и взросления личности подростка, а также влияние биологических и социальных факторов, влияющих на это. Секретные вопросы, даны мнения ученых о трудностях подростков и причинах этих трудностей, даны рекомендации по работе с подростками.

**Ключевые слова:** подросток, умственное развитие, взросление, половое созревание, характер, черта характера, самосознание, родители, педагог, психолог, внимание, интерес.

**Abstract:** The article describes the specific features of working with "difficult-to-educate" teenagers, features of the psychological development of adolescence, ways of forming and maturing the personality of a teenager, and the influence of biological and social factors that affect it. Secret issues, the opinions of scientists about difficulties in teenagers and the causes of these difficulties are given, there are recommendations for working with teenagers.

**Key words:** adolescent, mental growth, maturation, puberty, character, trait, self-awareness, parents, pedagogue, psychologist, attention, interest.

### KIRISH

O’zbekiston Respublikasi o’z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardanoq har bir sohani tubdan isloq qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Respublikamiz miqyosida ta’lim va tarbiya ishlarini takomillashtirish, uni jahon andozalari darajasiga chiqarish, fan sohasidagi yangiliklarni amaliy hayotga tadbiq etish muhim masalalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish, ularda fan asoslariga nisbatan ko‘nikma, malaka, bilimlarni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Ana shu ustuvor vazifalarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat taraqqiyotining muhim

sharti kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo‘lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida yuksalish bilan xarakterlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘smlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida o‘smlar huquqbuzarligining oldini olish, jinoyatchilik va jamiyatga qarshi xatti-harakatlarga nisbatan kurashni kuchaytirishga qaratilgan aniq choralar belgilab qo‘yilgan. Lekin shunga qaramay yoshlar orasida huquqbuzarlikni sodir etilishi oshib bormoqda. Yoshlar bu bizning kelajagimiz. Shuning uchun ham ularning tarbiyasi eng dolzARB masaladir. Ayniqsa, ular orasida huquqbuzarlikni sodir etish sabablarini o‘rganish juda muhimdir. Biz tanlagan mavzu bugungi kunda dunyo miqyosida global muammo sifatida tan olinmoqda.

Biz bilamizki, har bir shaxs o‘smir va o‘spirinlik davridan boshlab jamiyatda o‘z o‘rnini topishi zarur. Agar shaxs jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lmasa e’tiqodi sust, qadr-qimmati past bo‘ladi. Bunday o‘smlarning salbiy ta’sirlarga tushib qolishi oson bo‘ladi. O‘smlarga ta’sir etadigan salbiy omillar shubhasiz diniy ekstremistik to‘dalar, turli jinoiy guruqlar, giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi yoki narkobiznes bilan shug‘ullanuvchi ayrim ijtimoiy kuchlar, oqimlar va xulq-atvor shakllaridir. O‘smlar orasida bu kabi nojo‘ya xatti-harakatlarni qilish, ko‘p jihatdan ularning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularda turli xavfli vaziyatlarda to‘g‘ri qarorga kela olmaslik, natijalarni anglamaslik holatlari, tuzatilishi qiyin bo‘lgan xatoliklarga yo‘l qo‘yish hollari kuzatilishi mumkin. O‘smlarning shaxs sifatidagi maqomida qaysi psixologik sifatlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘layotganligi, yaratilgan ma’naviy ne’matlarga qiziqishlarining qay darajada ekanligini aniqlash, ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirish bugungi kunning dolzARB muammolaridan biridir. Psixolog o‘z faoliyatida o‘smlarning, pedagogik jamoa a’zolarining psixologik salomatligini muhofaza qiladi, o‘smlarning individual rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlaydi va ularning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ma’naviy-ruhiy sharoit yaratadi

### ASOSIY QISM

Ma’lumki, inson ijtimoiy munosabatlar qurshovida yashaydi. Ijtimoiy munosabatlar va jarayonlarning shaxsga ta’siri masalasi ijobjiy yoki salbiy ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Individga ijtimoiy jarayonlarning ijobjiy yoki salbiy ta’sir etishi birinchidan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan ijtimoiy muhit voqeahodisalari xususiyatlari va shart-sharoitlari mazmuniga ko‘ra namoyon bo‘ladi. Ya’ni ijtimoiy muhitning sog‘lom yoki nosog‘lomligi va uning ta’sirchanlik darajasiga ko‘ra individga u yoki bu ko‘rinishda ta’sir etadi va u yoki bu ko‘rinishdagi xulqiy og‘ishlarni kelib chiqishi uchun qandaydir ma’noda imkoniyat yaratadi. O‘smlardagi tarbiyasi “qiyin”lik ijtimoiy-ijobjiy xulqdan nafaqat yo‘nalganlik mohiyati yana psixik boshqaruv xususiyatlariga ko‘ra ham farqlanadi:

- a) shaxsning xulqi uning ehtiyojlari jabhasi, anglangan va anglanmagan e’tiqodlari tizimi, maqsadni qo‘yish, unga erishish xususiyatlari bilan tavsiflanadi;
- b) o‘smdiragi boshqaruv imkoniyatlarining pastligi asotsial hamda antisotsial ustanovkalar va odatlarni faqat nazorat qila olmaslik emas, balki xulqning maqsadga aylanish mexanizmini tashkil etadi;

v) xulqiy og‘ishlar asosida o‘smirning o‘z ijtimoiy mas’uliyatini o‘z o‘zini oqlashga qaratilgan himoya mexanizmi yordamida umumqabul qilingan me’yorlarning qadrsizlanishi yotadi.

O‘smirlardagi tarbiyasi “qiyin”lik xulq ko‘rinishlari-nizoli xulq bo‘lib, u o‘smir va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarning nomuvofiqligi, o‘zining jamiyatdagi tutgan o‘rnidan qoniqmaslik, jamiyat qoidalari bilan kelisha olmaslikka asoslanadi. O‘smirlardagi xulqiy og‘ishlar faqatgina unga bevosita ta’sir etuvchi omillarning natijasi emas, o‘smirning xulq-atvori tashqi sharoitlar tizimining unda shakllangan ichki holatlar bilan nomuvofiqligidir. Bunga qadriyatlar tizimi, maqsad qo‘yish va maqsadga erishish xususiyatlari, o‘z-o‘zini boshqarishdagi psixodinamik xususiyatlar, xulq usullarini umumlashtirish kabilalar kiradi.

O‘smirlar o‘rtasida tarbiyasi “qiyin”lik holatining kelib chiqishi quyidagi omillarga bog’liq:

1. Ijtimoiy omillar - erkinlik hamda ijtimoiy tartib qoidalardan ochish, qulay sharoit qidirish, hissiy xotirjamlik; o‘z “Men”iga past nazar bilan qarash, boshqalarga tobelik; moddiy kam ta’minlanganlikni his qilish, ota-onaning xulq-atvordan uyalish; ijtimoiy tartib qoidalarni buzish, huquqbuzarlik, bezorilik, mayda o‘g‘rilik, fohishalik; giyohvand moddalarni iste’mol qilish, ota-onalarning ishsizligi; o‘smir hayotida ijtimoiy-iqtisodiy tomondan qiyin vaziyatlariga tushishi kabilalar.

2. Oilaviy omillar - ota-onsa, o‘qituvchi, kattalar va o‘smirlar o‘rtasidagi muloqotdagi muammolar; o‘smirlarga kattalar tomonidan diqqat-e’tiborning yetishmasligi; ota-onalar bilan farzandlar o‘rtasida o‘zaro tushunishning yo‘qligi va ikki tomonlama intilishning yetishmasligi; ota-onalarning o‘g‘il va qiz o‘smirlarga nisbatan qo‘pol muomalada bo‘lishlari, ko‘r-ko‘rona otalik va onalik mehr-muhabbatining hukm surishi; oila davrasida, muhitida doimiy janjallarni qaror topganligi va ularni bartaraf etishga intilish yo‘qligi; ota-onalarning beqaror his-tuyg‘ulari, kayfiyatları, ularning tartibsiz, tasodifiy xarakterga ega bo‘lishi; farzand ota-onalarning shaxsiy qiziqishlarini o‘zaro mos tushmasligi va tubdan qarama-qarshi ekanligi; farzandlar nazarida ota-onalarning salbiy xulq-atvori, ularning ichish va chekishlari, giyohvandligi va intim qiliqlari; ota-onalarning muntazam ravishda o‘zaro janjallari; noto‘liq oilalar; o‘smirlarning qobiliyatini kattalar tomonidan salbiy baholanishi; ota-onalarini ma’naviy axloqsizligi kabilalar.

3. Shaxsiy omillar – o‘rtoqlar, sinfdoshlari, boshqa tengdoshlari bilan o‘zaro aloqa; o‘z-o‘zini tushunmaslik va o‘ziga salbiy munosabat; hayotiy yo‘nalishlardagi orzu va havaslar; ichki ruhiy yolg‘izlik, o‘zgalarning o‘smirlarni tushunmasligi; baxtsizlikdan qiyinalish, shaxsiy qiyinchiliklar; shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, muammolardan xavotirga tushish, irodasizlik; o‘qishdagi qiyinchilik, og‘ir vaziyatlarga uchrash; hissiy xavfsizlik - “himoya qiluvchi”ni qidirish; spirtli ichimlik ichish va jamoat joyida chekish; taksikomaniya; mакtab qoidalarni buzish, dars qoldirish, uyga berilgan vazifani bajarmaslik; o‘zgalarga tobe bo‘lmaslik; o‘ziga ishonchning etarli emasligi; irodaviy-hissiy jihatdan zaifligi; yolg‘izlik, o‘zgalarni tushunmaslik; ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmasining kamligi; bo‘s sh vaqtini to‘g‘ri tashkil qilinmaganligi; o‘zga e’tiborni xohlashi kabilalar.

4. Fiziologik omillar - nerv sistemasidagi kasallikkilari (oligofreniya, shizofreniya, psixik rivojlanishning sustligi, autizm...)

Psixolog olim V.Klaynning o'smirlardagi salbiy og'ishlar to'g'risida fikr yuritar ekan, ularni quyidagi turlarga ajratadi:

1. "Esi past". O'smirlarning xulq-atvorida sho'xlik, yoqimsiz xatti-harakatlar yetakchilik qiladi. Uyga kech kelish, aldash, ta'lim muassasasidagi har xil nizoli vaziyatni kelib chiqishiga sababchi bo'lishlari, kinoga biletisiz kirishlar, doim janjallahish, atrofdagilarni ko'nglini qoldirish, narkotikni tatib ko'rishga moyil bo'lishlari kuzatiladi.

2. "Ota-onaning dushmani". Bu toifadagi o'smirlar o'z xatti-harakatlari bilan ota-onalarini qiyin holatda qoldiradilar, ularga norozilik hissini ochiq oydin bildiradilar. Ular ota-onasini munosabatini tushunmaydilar. Bu davrda salbiy hislari ortib boradi.

3. "Axloqsiz o'smir". Bunday o'smirlar asotsial yo'nalishga ega. Ularning hissiy va intellektual taraqqiyotida o'zgarishlar yo'q, xulq-atvorida ham yaqqol o'zgarish kuzatilmaydi. Ularda qonunbuzarlar bilan aloqada bo'lishga moyillik bor. Bu holat o'smirga nisbatan oiladagi e'tiborsizlik yoki nomaqbul oilada tarbiya topganligi zamirida vujudga kelishi mumkin.

4. "Organik". Bu toifadagi o'smirlarda miyaning lat yeyishi yoki aqliy taraqqiyotida ortda qolish yuzaga keladi. Bu esa tartib-intizomni hamda xulq-atvorning buzilishiga olib keladi. Bunda o'smirlar ko'pincha o'z tengdoshlari bilan janjallahadilar.

5. "Psixotiklar". Aqliy etilmagan, kasalmand o'smirlar bo'lib, ularda gallyutsinatsiya, jinoiy harakatlardan xursand bo'lish, buzg'unchi fikrlar hukmronlik qiladi.

6. "Nasliy buzuqlik". Bu toifadagilar birlamchi psixopatlar hisoblanadilar. Ular uchun jinoiy xatti-harakat qilish odatiy holga aylanadi. Nasliy buzuqlarda xatti-harakatlar ilk yoshdayoq namoyon bo'ladi. Ularda mas'uliyat hissi yo'q va ishonib bo'lmaydi. Ularni tuzatish va yordam ko'rsatish ancha mushkuldir.

O'smirlarda tarbiyasi "qiyin"lik holatini kelib chiqishining obyektiv shart-sharoitlari jamiyatdagi xatoliklar, boshqaruv tizimidagi kamchiliklar, qonun va qoidalarning talabga javob bermasligi va boshqalardan iboratdir. O'smir xulq-atvoridagi buzilish ijtimoiy muhitning o'ziga xos jihatlari, ya'ni sog'lom va nosog'lomligiga, individning fe'l-atvori, xarakter xususiyatlari, ijtimoiy me'yorlar va shaxslararo munosabatlar, ular o'rtasidagi ziddiyatlar hamda ularning zo'rayib borishi kabilarga bog'liq bo'ladi. O'smirning dunyoqarashi, ijtimoiylashuvi va individual hissiyotlarining ijobiy tarzda shakllanishi va namoyon bo'lishi uni jamiyat va insoniyat uchun foydali bo'lgan xatti-harakatlarga undaydi. Shuni unutmaslik kerakki, tashqi muhit yoki ijtimoiy voqeа-hodisalar har doim ham tarbiyasi "qiyin"lik holatini kelib chiqishi uchun asos bo'lib xizmat qilmaydi. Qachonki, ijtimoiy voqeа-hodisalar va individ o'rtasida qarama-qarshilik va ziddiyatlar yuzaga kelsa, jamiyatda hukm surayotgan ijtimoiy normalar individ tomonidan qabul qilinmasa hamda ijtimoiy muhitda xulq og'ishining kelib chiqishi uchun etarli shart-sharoit mavjud bo'lgan holatlarda kelib chiqishi mumkin.

Muayyan turmush tarzi va o'ziga xos tarbiya muhitida kamol topgan o'smir turli hayotiy vaziyatlarda ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga ko'ra ma'lum ziddiyatlarga duch keladi va uni yengib o'tishga harakat qiladi. Lekin o'zi kutgan natijaga erisha olmaydi. Bunda frustratsiya holati yuzaga keladi va natijada xulqiy og'ishlar namoyon bo'ladi. O'smirlarda tarbiyasi

“qiyin”lik holatini kelib chiqishiga asos bo’luvchi omillarni o‘rganar ekanmiz, birinchи navbatda uning ma’naviy jihatdan qashshoqligi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi. O‘smirning ma’naviy qashshoqligi ijtimoiy muhit bilan o‘rtasidagi murakkab vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Ma’naviy jihatdan barkamol bo‘lgan shaxs ijtimoiy muhit voqeа-hodisalariga nisbatan ijjobiy munosabatini namoyon qiladi. O‘smirning ijtimoiy va psixologik fazilatlari ijtimoiy munosabatlar doirasida shakllanadi. Individ ijtimoiy muhit bilan aloqaga kirishi jarayonida xulq-atvor normalarining ma’naviy, ijtimoiy va madaniy tushuncha va tasavvurlarni, yangi-yangi qiziqish va ehtiyojlarni egallab boradi. Shuning bilan bir qatorda shaxs ijtimoiy muhit munosabatlari va insoniy taqdirning passiv kuzatuvchisi bo‘lmasdan, o‘z turmush tarzini, shart-sharoiti va shaxsiy hayotini o‘zi belgilaydi va quradi. Demak, shaxs shakllanishida insonning o‘z qiziqishlari, intilishlari, maqsadlari muhim o‘rin tutadi. Bunday fazilatlarga ega bo‘lgan shaxs turli xil hayotiy voqeа-hodisalar qurshovidan osonlik bilan chiqqa oladi. Shuning uchun shaxsda ijtimoiy fazilatlar, mustahkam va qat’iy hayotiy pozitsiya, maqsad va intilishlarni shakllantirish o‘smirlar o‘rtasida tarbiyasi “qiyin”lik holatini oldini olishda muhim ekanligini unutmaslik kerak. Ko‘pgina tadqiqotchilarining ta’kidlashlaricha, o‘smirlarda xulq og‘ishining kelib chiqishiga ulardagi asabiylilik, aqliy taraqqiyot darajasiga ko‘ra sust rivojlanganligi va shaxsning boshqa psixologik xususiyatlari ham sabab bo‘ladi. O‘smirlarning zararli odatlarga berilishlari, xususan spirtli ichimlikka ruju qo‘yishlari, giyohvandlik va tamaki mahsulotlarini chekishlari holati ham ularda xulq og‘ishining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

### XULOSA

Psixolog o‘z faoliyati jarayonida tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda va bu holatni oldini olishda birinchidan, o‘smirlilik yoshida paydo bo‘ladigan turli ko‘rinishlardagi tarbiyasi “qiyin”likni paydo bo‘lish sabablarini psixologik hamda ijtimoiy sabablarini kompleks tarzda o‘rganishi zarur;

Ikkinchidan, o‘smirlar va ularning ota-onalari bilan suhbatni solishtirma qiyosiy o‘rganish va o‘smir xulqiga nisbatan oilaning talabi hamda o‘smirga oilaviy munosabatlarni qanday tarzda bo‘lishi ma’qulligini aniqlashi lozim.

Uchinchidan, o‘smir va uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tadqiq etish, o‘smirlardagi turli ko‘rinishdagi tarbiyasi “qiyin”lik kuzatilganda ularning individual psixologik va ijtimoiy-psixologik jihatlariga alohida e’tibor berishi kerak.

To‘rtinchidan, o‘smirlarning xulqiy og‘ishlarga oila omilining ta’sirini o‘rganib chiqishi lozim va o‘smir oilaviy muhitini muntazam o‘rganib borishi, oilada hech qanday nizo, janjal alomati bo‘lmagan holatlarda ham ushbu oila muammolarini o‘rganib borish, zaruriy hollarda yordam berishi lozim.

Beshinchidan, o‘smirlardagi tarbiyasi “qiyin”likni bartaraf etishda o‘smirning xarakterologik xususiyatlarini ijjobiy tomonga o‘zgartirishda sinf rahbari va ota-onalar bilan hamkorlik qilishi kerak. Mahallalardagi ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchilarga:

- tarbiyasi “qiyin” o‘smirlarning oilalariga amaliy yordam berish maqsadida mahalladagi muammoli oilalar to‘g‘risida ma’lumotlar bankini yaratish;
- muammoli va noqobil oiladagi o‘smirlar bilan mahalla noziri hamkorlikda profilaktik tarbiya dasturiga ega bo‘lishi va birgalikda diagnostik va tekshiruv ishlarini muttasil olib borish;
-

notinch oilalar muammolarini o‘rganib borish va ushbu oiladagi farzandlar ta’lim-tarbiya jarayonini muntazam o‘rganib borish, zaruriy hollarda kelib chiqqan nizolarni bartaraf etishga oilaning yaqin qarindoshlari- katta avlod vakillarini jalg etish; □ tarbiyasi qiyin o‘smirning ta’lim oladigan muassasasidagi mutasaddilar bilan mahalla va oilaning hamkorlikdagi faoliyatini uyg‘unlashtirish, o‘smirning bo‘sh vaqtini adekvat taqsimlanishini doimiy nazoratga olish lozim va hokazo.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. G‘oziyev E.G‘., To‘laganova G.K. Tarbiyasi “qiyin” o‘smirlar. T.: 1989.
2. G‘oziev E.G‘. Ontogenet psixologiyasi. – T.: 2010.
3. G‘oziev E.G‘. Psixologiya metodologiyasi. – T.: 2013.
4. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – T.: 2010.
5. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik,”Durdon” nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
6. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, ” Buxoro viloyati bosmaxonasi” nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
7. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. “O‘zbekiston faylasuflari jamiyati” nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
8. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. “Durdon” nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
9. Avezov O.R., To‘ymurodov A.SH. Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta’sir etishning o‘ziga xos xususiyatlari. Ssiense And Education Scientific Journal Issn 2181-0842 Volume 3, Issue 4 April 2022. www.opensciense.uz P.717-725